

## **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yil 9 oyi davomida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tartibga solish to‘g‘risida**

### **AXBOROT**

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, “NKMK” AJ Kuzatuv Kengashining **2024-yil 7-iyundagi 4-sonli** bayonnomasi bilan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibiga solish to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan Komplayens xizmatini ma’sul xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish, ularga baxo berish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarini belgilash borasida **2024-yilda** taqdim etilgan deklaratsiyalarga asosan joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyi davomida tahlil va o‘rganishlar olib borildi.

Natijada, **jami 34 ta** mavjud manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha Komplayens xizmatining ma’sul xodimlari tomonidan tegishli **Odob-axloq komissiyalariga** belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilib, bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritildi.

Hozirgi kunga qadar **Odob-axloq komissiyalariga** kiritilgan taqdimnomalarga asosan, ish beruvchilar tomonidan **6 ta mavjud** hamda **4 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bartaraf etilib, rahbarlarning qo‘l ostida ishlab kelayotgan xodimlari **boshqa lavozimlarga o‘tkazildi**.

Komplayens xizmatini ma’sul xodimlari kelgusida yuqorida aniqlangan barcha holatlari yuzasidan monitoring va o‘rganishlarni davom ettirib, tegishli choralarini ko‘rib borilishi ma’lum qilinadi.